

UMURTQA POG'ONASI COVID-19DAN KEYINGI DAVRDA DISK CHURRASI TO'QIMA TARKIBINING MORFOMETRIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI

Maxkamov N.J.

Andijon davlat tibbiyot instituti DSc, dotsent

Xayrullaev A.A.

Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13788997>

Muammoning dolzarbligi. Umurtqa pog'onasi degenerativ va distrofik jarayonlarining struktur - funksional turi hisoblangan disk churralarining hozirgi kunda Kasallik va uning oqibatlari turli mutaxassisliklar, jumladan, ortopediya, travmatologiya, neyroxirurgiya, vertebrologiya mutaxassislari uchun ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. COVID-19 pandemiyasi butun dunyo bo'ylab jarrohlik yordam tizimi uchun sinovdir. COVID-19 bilan bog'liq turli xil surunkali ortopedik kasalliklar nafakat yaqindan o'rganish mavzusiga aylandi, balki eng dolzarb tibbiy va ijtimoiy muammolardan biri bo'lib kelmokda. Jahon miqyosida koronavirus infeksiyasining o'tkir davrida va keyingi doimiy uzoq muddatli tayanch harakat tizimidagi ortopedik oqibatlarga bag'ishlangan turli xil ortopedik kasalliklar bo'yicha yangi ilmiy tadqiqotlar tobora ko'payib bormoqda harakat tayanch tizimi kasalliklari ichida muhim o'rin egallashi, bu kasallikni davolashda yangi zamonaviy usullarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Respublikamiz sog'liqni saqlash tizimida umurtqa pog'onasi disk churralarini to'qima tarkibida bir biridan farqlanuvchi tuzilishi tahlilini o'rganish muhim hisoblanadi, bu esa bemorlarni erta va mukammal tashhis qo'yilishiga olib keladi.

Material va tekshirish usullari

Biz tadqiqotimizda asosan sifatida umurtqa pog'onasi degenerativ distrofik kasalliklari avaskulyar nekrozi bilan bemorlarning tekshirish va davolash natijalari, umurtqa tanasi suyak yuzasi va tog'ayli disk biopsiyasi, hamda turli kasalliklardan vafot etganlarning umurtqalar oralig'i diski va bo'g'im yuzasi suyak bo'laklari, hamda COVID -19 o'tkazgan konservativ usulda osteoxondroz, spondilyoz va disk churrasi bilan davolangan bemorlarning materiallari olingan.

Tadqiqotda umurtqa pog'onasi suyagi avaskulyar nekrozida bemorlarning klinik-anamnestik va patomorfologik o'zgarishlarini baholashda klinik-anamnestik, Morfologik (gematoksilin eozin, gistokimyoviy usullardan: Van Gizon, Shiff usuli), Multipleksli konfokal morfometrik, statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Xulosalar

Umurtqa pog'onasi degenerativ-distrofik kasalliklaridan churra to'qimasini morfometrik jihatdan o'rganilganda, unda rivojlangan patologik jarayonlar ta'sirida tog'ayli disk to'qima tuzilmalaridan har birining faollik koeffitsientini aniqlash katta ahamiyatga ega va funksional jihatdan baholashda asosiy miqdoriy ko'rsatgichni beradi. COVID-19dan keyingi davrda umurtqa suyaklarini oziqlantiruvchi tomirlar va boshqa a'zolarining tomirlari kabi, tizimli shikastlanish oqibatida, suyakning g'ovak moddasidagi oziqlanish va metabolizmning izdan chiqishiga olib keladi. Ayni tadqiqot ishimizda keltirilgan, umurtqa suyaklari g'ovak moddasi qon tomirlari va tarkibiy tuzilmalarining morfometrik jihatlari quyidagicha bo'lib, nazorat guruhiga nisbatan nekroz o'choqlarini 13,97% ni tashkil etganligini va bu ko'rsatkichlar umurtqa suyagi tanasi g'ovak qismini oldingi o'rta va orqa sohalarida 1-5% ga farq qilganligi aniqlandi. Bu esa, aynan, suyakni g'ovak moddasini oziqlantiruvchi arteriyalarning intimasi

shikastlanganligini va tomir devori qalinlashganligini ko'rsatadi. Suyak ustunlarining egallagan maydoni nazorat guruhiga nisbatan 3,5-6,15 barobargacha kamayganligi, kistoz bo'shliqlar va rezorbsion bo'shliqlarning shakllanishiga va postkovid sindromiga osteoporozni xam yuzaga keltiruvchi omil sifatida qarashligini tasdiqlaydi. Aynan, deritik to'qima atrofiga shakllangan limfogistiotsitar yallig'lanish infiltrati tarkibida yallig'lanish hujayralarining egallagan maydoni nazorat guruhiga nisbatan, 11,5 barobarga oshganligi xam aynan, COVID-19 bilan infitsirlangan va tomirlar orqali qo'zg'atuvchini barcha tomirlar devoridagi to'yinuvchanlik ko'rsatkichi sifatida baholanadi morfometrik tekshiruv usulida amalga oshirildi. Bunda, umurtqa pog'onasining har bir sohasidan jarrohlik amaliyotida olingan churra to'qimasi tarkibidagi hujayralar, tolali tuzilmalar, oraliq moddalarning egallagan maydonini hisoblab, uchta sohada rivojlangan churra tarkibiy qismining bir-biridan farqi aniqlandi va morfofunktsional jihatdan baholandi.

References:

1. Беляков. В.В. Структурно-функциональные нарушения при рефлексорных и компрессионных спондилогенных синдромах //Автореф. дисс. докт. мед. наук. -М. ,2005. -36 с.
2. Зиняков. Н. Т. ,Зиняков. Н. Н. К вопросу о классификации и терминологии грыж межпозвонковых дисков //Мануальная терапия 2007. -№3(27). -С. 22-28.
3. Назаренко Г. В. , Героева И. Б. , Черкашов А. М. Вертеброгенная боль в пояснице. Технология диагностики и лечения //ОАО Издательство «Медицина», 2008, 456 с.
4. Неттер, Ф. Атлас анатомии человека, 4-е изд //Ф. Неттер. М.: ГЭОТАР-Медиа, 2007. - 624 с.
5. Новосельцев, С. В. Введение в остеопатию. Мягкотканые и суставные техники (2-е изд.) //СПб. : ООО «Издательство Фолиант», 2009. - 320 с.
6. Новосельцев, С. В. Крестец. Анатомо-функциональные взаимосвязи и роли в биомеханике тела человека // Мануальная терапия. 2008. - № 3 (31). - С. 89-99.
7. Прохорова. Е. С. Компьютерная томография и оценка эффективности консервативного лечение грыж межпозвонковых дисков //Автореф . дис . канд. мед. наук. Краснодар. 2003. -18 с.